

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

VAQT MAVZUSIGA OID BO'LGAN INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDAGI MAQOLLARNING O'ZARO O'XSHASH VA FARQLI JIHATLARI

Boyqobilova Shahriyo Shuhratovna

*Termiz iqtisodiyot va servis universiteti 2-kurs magistranti
(99-422-16-18, e-mail: shahriyo@list.ru)*

Annotatsiya. Ushbu maqolada Vaqt mavzusiga oid bo'lgan ingliz va o'zbek tillaridagi maqollarning o'zaro o'xshash va farqli jihatlari ko'rib chiqilgan. Ushbu maqolada maqollar ustida ish olib borgan olimlar va tadqiqotchilarning fikr va mulohazalari, xulosalaridan foydalanilgan.

Kalit so'zlar: maqol, reprezentatsiya, vaqt reprezentatsiyasi, chog'ishtirish, ingliz tili, o'zbek tili.

SIMILARITIES AND DIFFERENT ASPECTS OF PROVERBS IN ENGLISH AND UZBEK ON TIME

Abstract. This article examines the similarities and differences between English and Uzbek proverbs related to time. This article uses the opinions and conclusions of scientists and researchers who worked on proverbs.

Key words: proverb, representation, time representation, contrast, English language, Uzbek language.

ЛИНГВОКУЛЬТУРНЫЙ АСПЕКТ ПОСЛОВИЙ СО ЗНАЧЕНИЕМ ВРЕМЕНИ В АНГЛИЙСКОМ И УЗБЕКСКОМ ЯЗЫКАХ

Аннотация. В данной статье рассматриваются сходства и различия между английскими и узбекскими пословицами, связанными со временем. В

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

данной статье использованы мнения и выводы учёных и исследователей, работавших над пословицами.

Ключевые слова: пословица, представление, представление времени, контраст, английский язык, узбекский язык.

Ingliz va o'zbek maqollari tizimlari haqida gap ketganda ularning mohiyati bir-biridan ajralib turishi aniq bo'ladi, chunki ular turli xil tarixiy, ijtimoiy va iqtisodiy sharoitlarda rivojlangan. Va bu maqollarni chog'ishtirma tahlil qilishda ham bir qancha nazariyalarga e'tibor berishimiz, ularni o`rganib chiqishimiz lozim bo`ladi.

Maqollar ingliz va o'zbek madaniyatining ulkan boyligi hisoblanadi. Asosiy manbalar quyidagicha tasniflanishi mumkin: diniy manbalardan olingan ba'zi belgilar va olingan tarjimalar, bundan tashqari, ommaviy axborot vositalari (televizor, radio yoki ijtimoiy tarmoqlar) tomonidan yaratilgan maqollardan, filmlar va qo'shiqlarning ifodalaridan va hatto barcha tillarda, shu jumladan ingliz va o'zbek tillarida reklama shiorlaridan kelib chiqadigan ba'zi maqollar mavjud. Biroq, ular yangi maqollar bo'lishlari yoki shakllanishi uchun birmuncha vaqt talab qilinadi. Maqollar ingliz va o'zbek tillarining juda ko'p qismlarini tashkil etadi. Ular bir-biridan semantik, strukturaviy, stilistik va hatto pragmatik jihatdan farq qiladi. Maqollar millat madaniyatining ko'plab kamchiliklarini qamrab olib, mavjud bo'lgan til madaniyatini tavsiflash, aniqlash va ifodalashga xizmat qiladi. Tilning paremiologik fondida milliy tushunchalar, narsalar, hissiyotlar, urf-odatlar, taniqli ajdodlar, hatto joy nomlari - madaniy nuqtalarni ko'rish mumkin. Ikkala tilda maqollar xilma-xil bo'lib, ular orasida sinonimik yoki antonimik maqollarni topish mumkin. Ammo ularning sinonimik va antonimik munosabatlari mutlaq deb hisoblanmaydi, chunki ular kontekstga qarab tanlanadi, natijada ularning ma'nolari ham ozgina o'zgarishi mumkin. Shu sababli, maqolni tegishli joyda qo'llash nutqni ravon qiladi. Chunki maqollar nutqda tez-tez ishlatiladi va ular vaqt, joy, holat va boshqa amaliy omillarga qarab tanlanadi. Bundan tashqari, jamiyat va ijtimoiy jarayonlar maqollarning ishlatilishi, mazmunan ifodalanishi va boshqa

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

xususiyatlariga bevosita ta'sir qiladi.

Vaqt mavzusiga oid ingliz va o'zbek maqollarining o'xshash va farqli jihatlarini tahlil qilishda K.M.Karomatova va H.S.Karomatovlarning “Proverbs. Maqollar. Пословицы” kitobidan foydalandim. Unda ingliz, o'zbek va rus tillaridagi 6000 ga yaqin maqollarning muqobil variantlari keltirib o'tilgan bo'lib, ingliz va o'zbek tillaridagi vaqt ma'nosini anglatuvchi maqollarning lingvokulturologik va semantik tahlillari qilingan.

Nº	Inglizcha maqol	O'zbekcha tarjimasi	O'zbekcha muqobil variant
1	Time and tide wait for no man	Vaqt va suv to'lqini odamni poylamas.	Vaqt — g'animat, o'tsa — nadomat.
2	Time cures all things	Vaqt hammasiga davodir	Dard – mehmon
3	Time flies	Vaqt uchar	Vaqtning qadriga yet
4	Time is money	Vaqt puldir	Vaqt aqchadir G'ofil bo'lma qochadir
	Time is never found again, Lost.	Yo'qotilgan vaqt ni sira topib bo'lmas.	Yo'qolgan oltin topilar, Yo'qolgan vaqt topilmas.
5	Time works wonders	Vaqt mo'jiza yaratar	Vaqt tog'ni yemirar Suv toshni kemirar
6	All in the day's work, It is.	Kunduzgi harakatda – barakat.	Ertalabki vaqt – naqdgina baxt.
7	Day the better deed, The better.	Yaxshiroq kunda yaxshiroq ish.	Har bir ishning vaqtি bor, Vaqt bilganning baxti yor.
8	First blow is half the battle, The.	Birinchi hamla – yarim jang.	Vaqt o'tgandan keyin qilichingni toshga chop.
9	Forbearance is no acquittance.	Sabr-toqat qilmoq, qarzdan ozod etish degani emas.	Vaqt kelsa, fil sichqondan qo'rkar.
10	Go to bed with the lamb, and rise with the lark.	Qo'zichoq bilab bir paytda o'ringa yotib, to'rg'ay bilan baravar uyg'on.	Erta turgan ish bitirar, Kech turgan ko'p turtinar.

Vaqt reprezentatsiyali maqollarni ikki tilda ya'ni ingliz va o'zbek tillarida chog'ishtirib tadqiq qilganimizda ularning asl manosini chiqarib olish bir tomonidan qiyinchilik paydo qilsa ikkinchi tomonidan ma'noviy jihatdan mos

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

keluvchi boshqa bir muqobil variantlardan birini tanlash imkonini beradi.

Ingliz va o‘zbek tillaridagi vaqtga oid maqollarni tahlil qilganimda, ulardagi bir qancha o‘xhash va farqli tomonlarni topdim va 1-jadvalda keltirdim.

1-jadval

Ingliz va o‘zbek tillaridagi vaqtga oid maqollarining o‘xhash va farqli jihatlari

Ingliz maqollarida vaqt	O‘xhash tomonlari	O‘zbek maqollarida vaqt
<ul style="list-style-type: none"> - Bugun eng yaxshi vaqt (faqat bugungi kunning mavjudligi); - Erta hechqachon kelmasligi; 	<ol style="list-style-type: none"> 1. Vaqtning qadrlanishi; 2. Vaqtini boylikka tenglash; 3. Vaqt yengib bo‘lmashga egaligi; 4. Vaqtidan unumli foydalanish; 5. O‘tgan vaqtga afsuslanmaslik; 6. Erta turishning foydalari. 	<ul style="list-style-type: none"> - Bugungi vaqtini ertangi farovonlik uchun sarflash;

Xulosa:

Xulosa qilib aytadigan bo’lsam, ikki tildagi vaqt reprezentatsiyali maqollar chog’ishtirilganda ikki tilda ham o‘xhash jihatlari ko’p ekanligi, shu bilan birga katta farqlar topilmadi va farqli jihatlari esa shu xalqlarning madaniy qarashlariga qarab farqlanishi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro’yhati:

Ta'limning zamonaviy transformatsiyasi

1. K.M.Karomatova va H.S.Karomatov. "Proverbs. Maqollar. Пословицы". – Toshkent- «Mehnat», 2000.
2. Paizbekova A.Dj. О семантической структуре концепта времени //Вестник НУУ «УзМУ хабарлари». - Тошкент, 2012. №1. - Б. 194-196 (10.00.00№ 15).
3. Paizbekova A.Dj. Similarities and differences of time conception in English, Uzbek and Russian proverbs // Ўзбекистонда хорижий тиллар: Илмий-методик электрон журнал. – Тошкент, 2014. - №-4. - Б. 97-105. (10.00.00. №17).
4. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya // Darslik. – Toshkent, 2019. – В. 90-101.
5. Xojiyev A. Lingvistik terminlarning izohli lug'ati //O'qituvchi, 1985. – В. 62.